

Tashqi siyosat masalalariga bag'ishlangan yig'ilish



11-yanvar kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va mamlakatimizning xorijdagi elchixonalari faoliyati tahliliga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati [xabar berdi](#).

Unda yurtimizning xorijdagi diplomatik vakolatxonalari rahbarlari, Prezident devoni vakillari, hukumat a'zolari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlari, Tashqi ishlar vazirligi va mamlakatimizning boshqa vazirlik hamda idoralari rahbar xodimlari ishtirok etdi.